

## TIBBIYOTDA OLTIN VAQT (SONIYA, DAQIQA, SOAT) IBORASINI TASHQI QON KETISHNI TUXTATISH MISOLIDA TUSHINTIRISH

*Yusupov Hamza Safarovich, Fozilova N.S.,  
Muxammadiyeva K.D.*

*Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,  
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,  
Tibbiyot fakulteti ichki kasalliklar kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Inson hayotida vaqt hech narsaga almashtirilmaydigan bebeho ne’mat sanaladi. «Oltin soat qoidasi» iborasini tibbiyotda qo‘llanilishini ko‘pchilik bilmasligi mumkin. Insonga biror tashqi yoki ichki omillarning salbiy ta’siri natijasida kritik(hayotiy ko‘rsatgichning eng pastki no‘qtasi) xolatga tushish xolatlari uchrashi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** oltin vaqt-soat(zolotoy chas), jabrlanganlar uchun oltin vaqtning ahamiyati.

Bu omil tan jarohati(tashqi omil) bo‘ladimi, ichki omil arterial qon bosimi oshib insult bo‘ladimi, yurakka bog‘liq infarkt bo‘ladimi, inson organizimi ko‘rsatgichlari kritik nuqtaga tushadi va o‘z vaqtida yordam berilmasa, bemor vafot etadi. YUqorida ta’kidlangan o‘z vaqtida degan so‘z bu oltin vaqt( soniya, daqiqa, eng uzog‘i soat)ni bildiradi. Qanchalik tez tibbiy yordam ko‘rsatilsa, bemorning hayoti saqlanib qolishi,

h  
a Oltin soat qachondan boshlanadi? Bu soat jarohat olgan vaqt(soniya, daqiqa...)dan, yoki masalan yurak infarkt miokarditda og‘riq boshlangan vaqtdan boshlanadi...



Oltin soat davomiyligi qancha? - bu jarohatan keyingi 1-soat, (davomiyligi 1 soatga yaqin) bu reanimatsiyada qo‘llaniladigan atama bo‘lib, bu davrda tibbiy yordamning eng samarali natija beradigan davri hisoblanadi. Bu vaqt ichida tez tibbiy yordam ko‘rsatish (davolash) bemorning o‘limdan olib qolish ehtimoligini oshirilishini to‘liq isbotlangan. Bemorning keyingi hayoti shu vaqt oralig‘ida ko‘rsatilgan tibbiy yordam bog‘liq bo‘lib qoladi, shuningdek bu tibbiy yordam qanchalik sifatli bo‘lsa, bemorni hayotiy funksiyalarini qayta tiklash shuncha tezlashadi. Bu tibbiy yordam 5 ta etapda bo‘lishi mumkin.




**Xulosa:** qanchalik malakali yoki iqtisoslashtirilgan tibbiy yordam tez ko‘rsatilsa, bemorni hayotga qaytarish imkoniyati shuncha tezlashadi. Og‘ir bemorlarga o‘z-o‘ziga(yoki o‘zoro), o‘rta tibbiyot, xatto 1-vrachlik yordami ham etarli bo‘lmasligi mumkin, chunki masalan operativ amaliyot talab etiladigan bemorlar, faqat eng kamida tuman va shahar shifoxonalari ehtimoligi lozim.



**Oltin soatning qon ketish misolida ko‘rib chiqilsa:** Qon ketishi tibbiyotda bemorlar hayotini xavf ostiga qoldirishi juda ko‘p uchraydi. Har yili Respublikamizda minglab yo‘l-transport hodisalari ro‘y beradi, ularda yuzlab odam halok bo‘ladi. O‘lganlar soni bevosita jabrlanganlarga birinchi yordam qanchalik tez va malakali

ko‘rsatilishiga bog‘liq bo‘ladi. O‘limga olib kelivchi eng ko‘p sabab bu qon ketishidir. Qon ketishi bu - qonning qon tomir devoridan tashqarida oqishidir. (ma’lumot uchun: insonlarda qon ketishi 2 turga tashqi va ichki qon ketishga bo‘linadi. Tashqi qon ketishida qon bevosita teri butunligi buzilishi bilan kechib arterial(fantancha ko‘rinishida), venoz( pulsatsion), kapilyar(jarohat joyidan sizib chiqadigan) turlariga bo‘linadi. Ichki qon ketishi(bevosita ichki organlardan)da bevosita tibbiyot xodimi bo‘lmagan insonlar sezmasligi mumkin. Ichki qon ketishi ham, 2 turga bo‘linadi. 1-kavak organdan (qizilo‘ngach, oshqozon, ichak, traxeya, bronx,siydik qopi), 2-parenxematoz organ (jigar, talog‘, buyrak..) kabi organlardan qon ketishidir. Voyaga etgan odamda o‘rtacha 5 l qon bo‘ladi, shu qonning 40% yo‘qotishi o‘limga sabab bo‘lishi mumkin. Bu o‘tkir qon yo‘qotishdan o‘lim deb ataladi.



Arteriya qon tomirida qon bosimi yuqori bo‘lib, arteriya qon tomiridan qon ketsa, qisqa vaqt ichida o‘lim yuz berishi mumkin. Masalan arteril qon ketishida 3 minut ichida bemorni yo‘qotib quyish mumkin.



Lekin real hayotda biror organ shikastlanganda faqat bitta qon tomir shikastlanmasdan, bir necha qon tomir va organlar shikastlanishi mumkin. YUrak urishi tuxtagach 4-6 minut o‘tgach miyada qaytmas xolat yuzaga keladi. Bemor qon yo‘qotish natijasida arterial qon bosimi tushib, miyaga qon etib borishi kamayadi, shu sababli qon ketishini yuqorida ko‘rsatilgan qisqa muddat(3 minut) ichida yordam ko‘rsatish kerak. SHikastlanish yuz bergan joyda aholi tezda TTYO (103) chaqiradi. Lekin eng tez tibbiy yordam eng kechi bilan 15-20 minut ichida etib boradi. Bu vaqt ichida jarohat olgan bemor vafot etgan bo‘lishi mumkin. Echimi qanday? Bu tashqi qon ketishi o‘z vaqtida- 3 minut ichida tuxtatish. Qonni tuxtatish uchun TTYOni, yoki biror tibbiyot xodimini kutib turish kerak emas. Barcha bu tashqi qon ketishini tuxtatish usullarini bilishi zarur. Buni uchun birinchi tez tibbiy yordam usullarini barcha tibbiy yo‘nalishda bo‘lmagan oliy va o‘rta o‘quv yurtlari, maktablar, kolledjlarda ham o‘qitilishi tavsiya etiladi.Oxirgi vaqtlarda bu masalaga e‘tibor kamaygan yoki sifati pasaygan.

Tashqi qon ketishini tuxtatish 2 ga bo‘linadi: vaqtinchalik va doimiy.


Vaqtinchalik tashqi qon ketishini to‘xtatishning o‘zi ham yuqorida ta’kidlanganday 4 turga bo‘linadi: barmoq bilan bosib, standart jgutlar bilan, qo‘lbola matolar bilan(burama, enli rezina, kamar... ), qon to‘xtatuvchi elastik qisqichlar bilan.

**Ташқи қон кетишини тўхтатиш учун шу қон томиридан қон кетса қаердан босиб тўхтатиш жойини билиш лозим**


- 1.Бемор қонида ОИТС ва ВГ бўлиши мумкин.
- 2.Қон томирлар жойлашувини билиши лозим;
- 3.Қайси қон томирни қаердан бармоқ билан қайси суюкка босиб тўхтатиш мумкин;
- 4.Бармоқ билан максимим 10-15 минут тўхтатиш мумкин;
- 5.Бармоқ билан босиб туриб кейин жгут қуйилади.

Vaqtinchalik tashqi qon ketishini tuxtatish usullari

Barmoq bilan bosib tuxtatish usuli.	Bosib turuvchi bog‘lam quyish usuli(kapilyar qon ketishida)	Standart jgut bilan tuxtatish usuli.	Nostandart jgut(m: burama) bilan tuxtatish usuli.	Oyoq-qo‘llarni qattiq bukish bilan tuxtatish usuli.
-------------------------------------	-------------------------------------------------------------	--------------------------------------	---------------------------------------------------	-----------------------------------------------------



SHu o‘rinda bemorlar tezda SHTTYOB(EMIRJI) ga etkazish va TTYO ta‘minoti, sanitar mashinalar texnik xolati, xizmat ko‘rsatish sifati ancha oshgan. Bu ish bilan TTYO markaziga birlashtirilgan kol markazlarining ishini tashkil etilishi, navigatsiya, tizimidan unimli foydalanish bemorlarning hayotini saqlab qolishga ijobiy ta‘sir etmoqda.



### **Oltin soat terminning kelib chiqish tarixi:**

Ushbu atamaning kelib chiqish manbai sifatida birinchi jahon urushi davrida fransuz armiyasining harbiy jarroklarining yozuvlari hisoblangan. Ushbu atamaning professional leksikonga kiritilishi birinchi navbatda harbiy jarroh, keyin esa Baltimordagi Merilend universiteti tibbiyot markazida travmatologiya bo‘limi boshlig‘i sifatida mashhur bo‘lgan travmatolog R. Adams Kouli bilan bog‘liq. Ushbu muassasa o‘z veb-saytida o‘z asoschisidan quyidagi iqtibosni taqdim etadi:

Hayot va o‘lim o‘rtasida oltin soat bor. Agar siz jiddiy jarohat olgan bo‘lsangiz, omon qolish uchun 60 daqiqadan kamroq vaqtingiz bor. Albatta, siz aniq bir soat ichida o‘lishingiz shart emas, bu uch kun yoki ikki hafta o‘tgach sodir bo‘lishi mumkin - ammo bu davrda tanangizda tuzatib bo‘lmaydigan narsa sodir bo‘ladi. R. Adams Kouli.

### **Tanqid**

Garchi tibbiyot hamjamiyati jarohatlangan odamga yordam ko‘rsatishni kechiktirish juda istalmaganligiga rozi bo‘lsa-da, hozirgi tibbiy adabiyotlar ilmiy asosga ega bo‘lmagan tushuncha sifatida "oltin soat" mavjudligini shubha ostiga qo‘yadi. Xususan, tibbiyot fanlari doktori Brayan Bledso ushbu kontsepsiyani "shoshilinch tibbiy afsonalar" deb atagan boshqa atamalar bilan bir qatorda tanqid qilib, ko‘rib chiqilgan adabiyotlar tanqidiy bemorlarni qutqarish uchun hech qanday "sehrli vaqt" ko‘rsatmasligini ko‘rsatdi.

### **Oltin soat qoidasi**

Ekstremal vaziyatda nafaqat professionallik, balki vaqtni ham tejaydi. O‘nlab yillar davomida "oltin soat" mavjudligi - og‘ir vaziyatda bo‘lgan odamning sog‘lig‘i

hayot va o‘lim yoqasida muvozanatlashgani va jabrlanuvchiga eng samarali yordam ko‘rsatilishi mumkinligi haqida ma‘lum bo‘lgan. .

Inson tanasi tabiatan shunday yaratilganki, to‘satdan va jiddiy shikastlanganda maksimal kompensatsion funksiyalar taxminan 1 soat davomida barqaror holatni samarali saqlab turadi.

Keyin xavfsizlik zaxiralarining asta-sekin kamayib borishi davri keladi va tana tananing kamroq zarur bo‘lgan qismlarini "o‘chiradi", uning eng muhim qismini - miyani hayotiylik qoldiqlari bilan ta‘minlashga harakat qiladi.

Baxtsiz hodisadan keyingi birinchi soatda tibbiy yordam ko‘rsatish eng samarali hisoblanadi va xavfli asoratlarning rivojlanishini minimallashtirishga imkon beradi. Bir soatdan keyin vaziyatni barqarorlashtirish uchun ko‘proq harakat qilish kerak bo‘ladi.

Og‘ir jarohatlangan odamlar uchun vaqt omili shubhasiz ahamiyatga ega. Jabrlanuvchi jarohatdan keyin birinchi soat ichida kasalxonaga olib kelinsa, eng yuqori omon qolish darajasi ta‘minlanadi va asoratlarning xavfi sezilarli darajada kamayadi. Bu vaqt "oltin soat" deb nomlanadi, bu siz yordam ko‘rsatishni boshlaganingizda emas, balki jarohat olgan paytdan boshlanadi.

Ko‘pchilik birinchi yordam jarayonida vaqtni tejash zarurligi bilmagani, yoki bemorni o‘z vaqtida malakali (iqtisoslashgan) yordam markaziga etkaza olmagan uchun vafot etmoqda. Favqulodda vaziyatda sodir bo‘lgan har qanday xolatda, bemor hayotni saqlab qolishi uchun tez tibbiy yordam bilan ko‘rsatish asnosida, shifoxonaga etkazish lozim, chunki jabrlanuvchining "oltin soati" ning qimmatli soniyalari va daqiqalari boshqalarning harakatlaridagi nomuvofiqlik tufayli yo‘qoladi. Muayyan odamning hayoti va taqdiri ko‘p jihatdan yordam ko‘rsatuvchi harakatlariga tibbiy bilimiga bog‘liq bo‘ladi.

Yo‘l-transport hodisalarida yordam ko‘rsatishning yangi tizimi, zamonaviy texnologiyalar nafaqat nogironlik va o‘limni kamaytirish, balki bemorning kasalxonada bo‘lish vaqtini qisqartirish va uni tezda reabilitatsiya qilish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pravilo «Zolotogo chasa». Informatsionnyy meditsinskiy spravochnik na portale bakumedinfo.com. Data obrasheniya: 28 dekabrya 2013. Arxivirovano 28 dekabrya 2013 goda.
2. Lerner B; Moscati. "Urban Legend?" (angl.) // Academic emergency Medicine (angl.)rus. : jurnal. — 2001. — Vol. 8, no. 7. — P. 758—760. — doi:10.1111/j.1553-2712.2001.tb00201.x. — PMID 11435197.
3. Ekstrennaya meditsinskaya pomosh: ulojitsya v «zolotoy chas». Gazeta «Mediko-farmatsevticheskiy vestnik Tatarstana» (9 avgusta 2010). Data obrasheniya: 28 dekabrya 2013.
4. Pravilo «zolotogo chasa». GU MCHS Rossii po Kalujskoy oblasti.
5. Zolotoy chas Vserossiyskogo sentra ekstremnoy i radiatsionnoy meditsiny MCHS Rossii. Telekanal MCHS Rossii.
6. Wikipedia® — zaregistrovannyi tovarnyy znak nekommercheskoy organizatsii Fond Wikimedia (Wikimedia Foundation, Inc.)